

## KO'Z TUZILISHINING YOSHGA BOG'LIQ XUSUSIYATLARI. BOLALAR KO'Z TUZILISHINING KATTA YOSHLI ODAMLAR KO'Z TUZILISHIDAN FARQI.

**Aripov Abdulla Nasritdinovich, Mavlanova Sadbarxon Abdukarimovna,  
Voxidjonova Gulruh Shokir qizi.  
Namangan davlat universiteti**

**Annotatsiya:** Ushbu tezis bolalar ko'z tuzilishi va ularning kattalar ko'z tuzilishidan farqi hamda ko'z tuzilishining yoshga bog'liq xususiyatlari to'g'risida bayon qiladi.

**Kalit so'zlar:** ko'z kosasi, ko'z soqqasi, ko'ruv gigiyenasi, yorug'lik koeffitsiyenti, sun'iy yoritish

**Abstract:** This thesis describes the structure of the eyes of children and their difference from the structure of the eyes of adults, as well as age-related features of the structure of the eye.

**Key words:** eye cup, eyelid, vision hygiene, light coefficient, artificial lighting

**Аннотация:** В данной дипломной работе описано строение глаз детей и их отличие от строения глаз взрослых, а также возрастные особенности строения глаза.

**Ключевые слова:** наглазник, веко, гигиена зрения, световой коэффициент, искусственное освещение.

Bolalarning ko'zi tuzilishiga ko'ra katta odamning ko'zidan farq qiladi. Ularning ko'z kosasi chuqurligi va ko'z soqqasi katta yoshli odamlarnikiga qaraganda kattaroq bo'ladi. Ko'z soqqasi bola hayotining birinchi yilida birmuncha tez o'sadi. Yangi tug'ilgan bolaning ko'zi qisqa vaqt ochilib, keyin yumilib oladi. Qovoqlari birinchi oydan boshlab uyg'un harakat qila boshlaydi. 2 oylikdan ko'z soqqasi turli narsalarga va yorug'likka nisbatan harakatlanadi. Ko'zning uyg'un harakati, asosan, mashq qilish tufayli 6 oylikdan yoki bir yoshdan boshlanadi. Ko'rish analizatorining avval periferik. so'ngra markaziy qismi rivojlanadi. Yangi tug'ilgan bolada ko'rish nervining tolalari kam tabaqalashgan bo'ladi. Bu nervning miyelinlashuvi bola 1-1,5 yashar bo'lguncha davom etadi. Yangi tug'ilgan bola ko'zining nur sindirish qobiliyati katta kishilarnikidan farq qiladi. Ko'pincha bog'cha va maktab yoshidagi bolalarda ko'zning gavhari nihoyatda elastik bo'lganidan akkomodatsiya xususiyati asta-sekin rivojlanib boradi. Yosh ortishi bilan gavharning elastikligi kamayib boradi. Yaqindan va uzoqdan yaxshi ko'rmaslik har xil sabablarga bog'liq bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda uzoqdan ko'rish uchraydi. Odatda, maktab yoshidagi bolalarda yaqindan ko'rish uchraydi. Yaqindan ko'rish yotib o'qish yoki juda egilib o'qish tufayli kelib chiqadi, chunki doim yotib o'qiganda, egilganda ko'zga qon to'lishi ortadi, bosimi ko'tariladi, natijada ko'z soqqasi kattalashadi va fokus oralig'i o'zgaradi[2,8].

Yorug'lik yetarli bo'lmaganda ham kipriksimon muskullar uzoq vaqt davomida qisqarib turadi va gavharning nur sindirish xossasi ortadi. Partalar, sinf doskasi, ish joyi yetarli darajada yoritilmaganda esa o'quvchilar yaqindan ko'radigan bo'lib qoladi. Yaqindan ko'radigan o'quvchilar albatta shifokor maslahati bilan ko'zoynak taqishi kerak. Bog'cha bolalari avval narsaning shakliga, o'lchamiga, so'ngra rangiga ahamiyat beradi. Ular ranglarni asta-sekin ajrata boradi. Qiz bolalarning rang ajratish qobiliyati o'g'il bolalarnikiga qaraganda yaxshi rivojlangan bo'ladi. Odam ko'zining o'tkirligi yoshi kattalashgan sari o'zgara boradi. Bolalar va o'smirlar ko'zining o'tkirligi kattalarnikiga nisbatan yuqori bo'ladi. Gigiyena talablariga ko'ra, o'qiyotgan yoki yozayotgan vaqtda xonaga yorug'lik chap tomondan tushishi, kitob

bilan ko‘zning orasi 30-35-40 sm dan kam bo‘lmasligi kerak. Ana shunda ko‘z charchamaydi va o‘tkirliigi normal saqlanadi. Ko‘ruv gigiyenasi yaqindan va uzoqdan yaxshi ko‘rmaslik har xil sabablarga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘zning zo‘riqib ishlashiga aloqador mashg‘ulotlarda (rasm chizish, applikasiya) ko‘z charchamasligi uchun bolalarni vaqti-vaqti bilan boshqa ishga chalg‘itib turish kerak. Ana shunda ko‘z charchamaydi va o‘tkirliigi normal saqlanadi[1].

O‘quv xonalarining yoritilishiga qo‘yilgan gigiyenik talablar ko‘zning ko‘rish qobiliyatini me‘yorida saqlash va keksalik davrida ham yaxshi ko‘rish uchun ko‘zga zo‘r kelmaydigan qulay sharoit yaratish zarur. Bolalar va o‘smirlarning o‘qish va boshqa ishlar bilan shug‘ullanadigan joylari, tik tushadigan yoki me‘yorida aks etuvchi quyosh nurlari (tabiiy yorug‘lik) bilan yetarlicha yoritiladi. Ish o‘rnining tabiiy yorug‘lik bilan nechog‘li yoritilishi, o‘quv binosining joylanishiga, qo‘shni binolargacha bo‘lgan masofaning katta-kichikligiga, tabiiy yoritilganlik koeffitsiyenti bilan yorug‘lik koeffitsiyentiga bog‘liq. O‘quv binosi gorizontga nisbatan to‘g‘ri joylashganda to‘rt iqlim mintaqasida bino derazalari janubga, janubi-sharqqa qaratib qurilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunda yorug‘lik bolaning chap tomonidan tushadigan bo‘ladi[2,8,10].

Yorug‘lik koeffitsiyenti (YoK) - oyna qoplangan derazalar yuzasining, pol yuzasiga nisbatidir. Sinf xonalari va ustaxonalarda YoK kamida 1 : 4 ni tashkil qilishi kerak. Koridor-rekreasialar va jismoniy tarbiya zalida u 1 : 5-1 : 6 gacha kamaytirilishi mumkin; yordamchi xonalar uchun 1 : 8 va zinapoyalar uchun 1 : 12 teng. Sinf xonalari va boshqa xonalarining tabiiy yorug‘lik bilan yoritilganligi derazalarning shakliga, pastki va ustki chetlarining balandligiga bog‘liq va hokazo. Deraza tokchasining poldan balandligi 80 sm, derazalar oralig‘i 50 sm bo‘lishi kerak. Ustki qismi dumaloq qilib ishlangan derazalar, yorug‘lik bir tomondan tushadigan bo‘lsa, deraza ustki cheti balandligining xona ichi (eni)ga nisbatini buzadi, bu nisbat 1 : 2 ni tashkil qilishi kerak. Buning ma‘nosi shuki, xonaning eni derazaning yorug‘lik tushadigan ustki chekkasidan polgacha bo‘lgan balandligidan yuqori bo‘lmasligi zarur. Maktab xonalarining yoritilganligiga jihozlar (partalar. sinf doskasi)ning rangi ta‘sir qiladi[5,6,7].

Sun‘iy yoritilish. Keyingi paytlarda o‘quv xonalarini yoritishda luminescent lampalardan foydalanilmoqda, ular yaxshi yoritadi, uncha yaraqlab ketmaydi. Yorug‘lik manbayi o‘rnida quvvati 40 va 80 W li luminescent «oq» yorug‘lik lampalar (SB tipidagi lampalari)dan foydalangan ma‘qul. Yorug‘likning normal bo‘lishi uchun chiroqlarni xonada gigiyenik jihatdan to‘g‘ri joylashtirish, ya‘ni qator-qator qilib, derazali tashqi devorlarga parallel joylashtirish muhim ahamiyatga egadir. Chiroqlar alohida-alohida (har bir qatori alohida) yoqib o‘chiriladigan bo‘ladi, bu ertalabki mashg‘ulotlar vaqtida, derazadan naridagi jovlarni, birinchi navbatda yoritishga imkon beradi. Aralash yorug‘lik (tabiiy va sun‘iy yorug‘lik) ko‘ruv-organlariga salbiy ta‘sir qilmasligi tadqiqotlar asosida tasdiqlangan[3].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Qodirov U. Z., Abdumajidov A. A., Askarvants V. P. Bolalar fiziologiyasi. Toshkent. «Ibn Sino». 1999.
2. Клемешева Л.М., Атматов К.Т., Матчонов А. Возрастная физиология. - Т.: НУУЗ.; 2002.
3. Q. S. Sodiqov O‘quvchilar fiziologiyasi va gigiyenasi. Toshkent «O‘qituvchi» 1992.
4. Almatov X. T. Ulg‘ayish fiziologiyasi. M. Ulug‘bek nomidagi O‘zMU bosmoxonasi. - T. - 2004.
4. A. Aripov, N. Shaxmurova. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. - T.: Yangi asr avlodi, 2009.

5. Sodiqov B., Suchkarova L. Bolalar va o'smirlar fiziologiyasi va gigiyenasi. CTzbekiston milliy entsiklopediyasi davlat nashriyoti. T.. 2005.
6. Nurmuxamedova M. X., Nazarova X. A. Gigiyena. «OszR Fanlar akademiyasi» nashriyoti. - T., 2007.
7. Solixojayev S. S., Iskandarova Sh. T., Do'stjanov B. D. Umimiy gigiyena. - T., 2003.
8. Махмудов Е. Возрастная физиология и основы гигиены. Р1зд. Лит. Фонда союза писателей Республики Узбекистан. - T., 2006.
9. Sarkisyants Ye. Ye. Gigiyena bilan sog'liqni saqlashni tashkil qilish asoslari. - T., 1998.
10. F, Jabborov R. Dehqonov Sh. O'smirlar fiziologiyasi (uslubiy qo'llanma). - Samarqand, 2007

## BIOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL QILISHDA RAQAMLI TA’LIM TEKNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

**Djumaniyazova Muyassar Palvannazirovna**  
Urganch davlat universiteti, “Biologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi.

**Annotatsiya.** O‘quvchilarga biologiya fanini o‘qitishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish bo‘yicha orttirilgan tajribalar, moddiy bazasi, didaktik xususiyatlari va ta’lim jarayonida qo‘llash metodikasi bilan tanishtirib borilmoqda. Shu ma’noda mazkur maqolada o‘quv jarayonini samaradorligini oshirishda raqamli ta’lim vositalarini joriy etish va undan samarali foydalanish mexanizmlariga e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** biologiya, o‘quv jarayoni, multimedia, raqamli ta’lim vositalari, elektron muhit, elektron ta’lim, dars, mustaqil ta’lim olish, biologiyaning turkum fanlari, uzluksiz ta’lim tizimi, mobil ilovalar.

**Abstract.** Students are introduced to the experiences gained in the use of information technology tools in the teaching of biology, their material base, didactic features, and the methodology of their use in the educational process. In this sense, this article focuses on the mechanisms of introducing and effectively using digital educational tools to improve the effectiveness of the educational process.

**Keywords:** biology, educational process, multimedia, digital educational tools, electronic environment, e-learning, lesson, independent learning, biological sciences, continuous education system, mobile applications.

**Аннотация.** Студенты знакомятся с опытом использования средств информационных технологий в преподавании биологии, материальной базой, дидактическими особенностями и методикой применения в учебном процессе. В этом смысле в данной статье основное внимание уделяется механизмам внедрения и эффективного использования цифровых образовательных инструментов для повышения эффективности образовательного процесса [1].

**Ключевые слова:** биология, образовательный процесс, мультимедиа, цифровые образовательные средства, электронная среда, электронное обучение, урок, самостоятельное обучение, биологические науки, система непрерывного образования, мобильные приложения.

Bugungi kunda xalq ta’limi tizimidagi amaldagi axborotlashgan ta’lim muhitining alohida komponentlari bo‘lgan axborot tizimlari, ma’lumotlar banklari, muassasa, tashkilot, pedagog va o‘quvchilarning veb-saytlari, axborot resurs markazlari, elektron axborot-ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar, media va videodarslar, elektron hujjatlar almashinuv tizimi, videokonferensiya aloqalari, intranet tarmog‘idagi on-layn tanlovlar tizimidagi barcha ishtirokchilarni faol foydalanuvchilarga aylanishiga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga keng joriy etilishiga xizmat qilmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimining deyarli barcha o‘quv muassasalarida o‘qitiladigan o‘quv fanlarida, jumladan biologiyani o‘rganish davomida ham hozirgi kunda deyarli har bir mavzu uchun taqdimot materiallarini tayyorlash va o‘quv jarayoniga joriy etish eng maqbul vositalardan sanalmoqda. Ya’ni hozirgi kunda o‘quv jarayonlarini elektron vositalarsiz tasavvur qilish juda qiyin. Ma’lumki, multimedia texnologiyalaridan ta’lim